

2022-yil 1-mart

## **“Kimyo faniga ixtisoslashgan va umumta’lim maktablarning o`qituvchilari uchun dasturiy va ilmiy faoliyatni tashkil etishning innovatsion ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi o`quv seminar-treningi boshlandi**



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2020-yildagi PQ-4805-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali bilan hamkorlikda tashkil qilingan "Kimyo faniga ixtisoslashgan va umumta'lim maktablarning o`qituvchilari uchun dasturiy va ilmiy faoliyatni tashkil etishning innovatsion ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi o`quv seminar-treningi boshlandi. Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali mezbonlik qilayotgan tadbirning

ochilish marosimida Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 50 dan ortiq kimyo fani o`qituvchilari, jamiyat vakillari va Rossiyalik mutaxassislar ishtirok etishdi. Shu bilan birga "O`zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi va RKTUning Toshkent shahridagi filiali rektori J. Mirzamahmudov hamda bosh universitet rektori Ilya Vladimirovich Vorotinsevlar video aloqa yordamida online tarzda qatnashib, mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo`nalishlarda ta`lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish Davlatning ustuvor vazifalari qatorida belgilanganligi, yoshlarni kimyo va biologiya fanlari bo`yicha chuqur o`qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo`shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog`-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki berishi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlashi, shuningdek, o`rta maxsus, professional, oliy ta`lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sohadagi ishlab chiqarish korxonalari o`rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog`liqlik, samarali muloqot va hamkorlik yo`lga qo`yilishi lozimligi, bunda esa kimyo fani o`qituvchilarining ahamiyati ulkan ekanligi, Rossiyalik malakali mutaxassis taklif qilinib tashkil etilayotgan seminardan ko`zlangan asosiy maqsad yurtimizda kimyo fanini rivojlantirish, maktablarimizda yosh kimyogarlar sonini oshirish, kimyo sanoati qanchalik kerakli ekanligini fan o`qituvchilari orqali yoshlarga yetkazish ekanligini ta`kidlashdi, qolaversa seminar-trening faoliyatida barchaga omad tilashdi.





Ochilish marosimi davomida ishtirokchilar RKTU ning Toshkent shahridagi filiali faoliyati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, kutubxona hamda zamonaviy o`quv va laboratoriya xonalari bilan tanishishdi va shundan so`ng seminar-treningga start berildi.

28 fevral - 5 mart kunlari bo`lib o`tdigan o`quv seminar-treninglarida Respublikamizning qator hududlaridan jami 150 nafar o`qituvchi ishirok etishi ko`zlangan.







Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish zarur, Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-avgust kuni PQ-4805-son qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qarorga muvofiq "O'zkimyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalariga 27 ta umumta'lim maktabi kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirish maqsadida birlashtirib berildi. 2021-yil davomida barcha maktablarning kimyo xonasi va laboratoriyalar to'liq ta'mirlanib kerakli jihozlar bilan ta'minlandi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-faniga-seminar-treningi>